

ZAMONAVIY TA'LIM

O'rroqboyeva Dilnoza Najmuddin qizi

TDTrU Sotsiologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ahmadjonova Shahnozabonu

Muhammadali qizi TDTrU Sotsiologiya

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Matkarimova Jamila Durdiyevna -

TDTrU f.f.d.(DSc), v.b.professor

Annatatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda zamonaviy ta'lismning ahamiyati, uning rivojlanish tendensiyalari va innovatsion yondashuvlari tahlil etiladi. Zamonaviy ta'lism jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli, interaktiv usullar va masofaviy ta'lism imkoniyatlari keng yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lismning O'zbekistondagi holati va uning xalqaro tajribalar bilan uyg'unligi ham muhokama qilinadi. Maqolada ta'lism samaradorligini oshirish yo'llari, pedagogik innovatsiyalar va kelajak ta'lismining istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется значение современной системы образования сегодня, ее тенденции развития и инновационные подходы. Широко освещается роль информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов и возможностей дистанционного обучения в современном образовательном процессе. Также будет обсуждаться состояние современного образования в Узбекистане и его гармония с международным опытом. В статье рассматриваются пути повышения эффективности образования, педагогические инновации и перспективы образования будущего.

Annotation: This article analyzes the importance of the modern education system today, its development trends, and innovative approaches. The role of information and communication technologies in the modern educational process, interactive methods, and the possibilities of distance learning are widely covered. The state of modern education in Uzbekistan and its compatibility with international experience will also be discussed. The article discusses ways to increase the effectiveness of education, pedagogical innovations, and the prospects of future education.

Kalit so'zi: Zamonaviy ta'lism, tarbiya, o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi, «O'zbekiston – 2030» strategiyasi, chora-tadbirlar, Inson kapitali, me'yoriy-xuquqiy hujjatlar, pedagogik texnologiya.

Ключевое слово: Современное образование, воспитание, уровень профессиональной компетентности учителя, стратегия "Узбекистан - 2030,"

меры, Человеческий капитал, нормативно-правовые документы, педагогическая технология.

Keywords: Modern education, upbringing, teacher's level of professional competence, "Uzbekistan - 2030" strategy, measures, Human capital, regulatory legal documents, pedagogical technology.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilar bilimi, ko'nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas'uliyatli bir ish hisoblanadi. Bunday vazifani ado etish uchun o'qituvchilar qaysi turdagi ta'lim muassasasida mehnat qilishidan qat'iy nazar doimiy ravishda o'z ustilarida mustaqil ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari va ilmiy ijodiy izlanishlari bugungi kunda muhim hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarining talablarini bajarish uchun majburiyligi nuqtai nazaridan ham o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi davr talabiga mos kelishi va muammo yechimini ijobiy hal etilishini ta'minlashi shubhasiz bo'ladi. Ta'lim metodlarini tanlashda esa har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun dars jarayonlarini oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirishi, yoshlarning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyatlarga yo'naltiruvchi matnlar, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarining mustaqil bajarishga bo'lgan talab yuqori hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miramonovich Mirziyoyev o'zining —Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz deb ta'kidlagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining majlisidagi nutqida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etgan edilar: Bugungi kunda «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!» degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rinn egallashi shart deya keng qamrovli fikrlar bildirganlar [1]. Bilamiizki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jadidlarining dasturida bir qator vazifalar keltirilib o'tilgan edi. Bular esa: xalq ta'limida islohotlar olib borish va madaniyat, fan va texnika hayotiy muhim bo'lgan sohalarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash; tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislardan Turkistonning iqtisodiyoti, sanoati va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda foydalanish; xalqning turmush darajasini ko'tarish va farovonligini oshirish; milliy sarmoyani shakllantirish, mulkdorlar va boy odamlarning ko'payishiga ko'mak berish; malakali mahalliy

mutaxassislar yordamida jamiyat va davlat hayotini tub islohotlarni amalga oshirish kabilar keltirib o'tilgan. Ushbu dasturdagi vazifalar hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotganini guvohi bo'lamiz va Yangi O'zbekiston sharoitida 2023-yil 11-sentyabrdan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston – 2030» strategiyasida o'z aksini topganligining ko'rishimiz mumkin. So'nggi yillarda esa davlatimizda ta'lim tizimidagi sohasida islohotlarning huquqiy asoslariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'lim tizimining mukammallik sari dadil qadam tashlayotganligining guvohi bo'lamiz. Bular «Ta'lim to'g'risida»gi, «Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruvi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, «Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, «Pedagogning maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni kabi hujjatlarda o'z aksini topib kelmoqda. Shunday ekan muhim hujjatlardan biri, shubhasiz, «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Oliy ta'lim yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalar asosida yosh avlod orasida ijodkorlarning mehnatiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan intellektual mulk fanlari joriy etilib, ular bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda sohada faoliyat olib boruvchi amaliyotchilar ishtirok etishi bugungi kunda ta'minlanib kelinmoqda. Chunki ta'limning asosiy natijadorligi intellektual mulkda o'z ifodasini ham topadi. Sir emaski, bugungi kunda innovatsion va raqamli jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida inson kapitali, ya'ni malakali kadrlar sifat darajasini baholash masalasi o'ta dolzarb tusga aylanib qolmoqda. Inson kapitalini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi: "Ta'limning davomiyligi", "Ta'lim natijalari (bilim darajasi)", "Sifatli ta'lim olish davomiyligi". Ushbu ko'rsatkichlar asosida inson kapitalidan foydalanish darajasi aniqlandi. Jahon banki dunyo miqyosidagi mamlakatlarining 2020-yil uchun inson kapitali indeksini e'lon qilgan edi. Unda O'zbekiston ham ilk bor qatnashib, 62 % lik natijani qayd etgan [2].

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash, pedagog kadrlarni tayyorlashning innovatsion usullarini joriy etish, zamonaviy ta'lim sifati jihatidan yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan tub islohotlar olib borilayotgani barchamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi [2]. Zamonaviy ta'limda pedagogik innovatsiyaning o'mni va roli juda katta. Bunga sabab ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab muntazam rivojlanib, takomillashib

boruvchi dinamik tizim hisoblanadi. Ushbu rivojlanish va takomillashish esa ta'lim jarayonini zamon talablarini hisobga olgan holda doimo yangilab borishni talab qil adi. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni quyidagi bosqichda amalga oshirish mumkin: 1. Innovatsiyalarni pedagogik faoliyatda qo'llashda o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish. 2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish. 3. Ta'lim jarayoniga innovatsiya kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish[3]. Ta'lim tizimida shaxsning fazilatlari faoliyat ko'rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi, shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarda yangilikka intilish va mustaqil ishlashga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki innovatsiyalar insonga ulug'vorlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi. Agar bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash vazifalari yuqori saviyada amalga oshirilsa, ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy etish samarali bo'ladi hamda sezilarli natijalarga erishish imkoniyati kengayadi. Oliy ta'lim tizimini islohlari natijasida moddiy texnik bazani mustahkamlash, sifatli pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidagi islohotlar, ta'lim va tarbiya jarayoni tubdan yangilash, shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali natijaviylikni ta'minlash imkoniyatlari kengaytirildi[4]. Oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor yo'nalishlarda «pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzlusiz yuksaltirish» kabi vazifalar belgilandi. Shu asosda bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ushbu yo'nalishdagi vazifalarni tashkil etish texnologiyasi, uslubiy ta'minoti, faoliyatga oid kompetentsiyalar tizimi va mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi tezkor o'zgarishlarga boy bo'lgan Yangi O'zbekistonni yaratish bosqichida har bir shaxsdan o'z ichki imkoniyatlaridan yuqori saviyada qo'llash, shu bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari ruhiy dunyosini boshqarishni talab qilmoqda [5].

Bugungi kunda olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi ko'ra odatda iste'dodli, daho deb ataladigan odamlarning qobiliyatları - anomaliya emas, balki odatiy me'yorga mos ekanligini namoyish qildi. Vazifa faqat inson tafakkurini ochish, uning foydali ish koeffitsientini oshirish va nihoyat ko'pchilik mavjudligi haqida xayoliga ham keltirmaydigan tabiat in'om etgan boy imkoniyatlardan foydalananishdan iborat hisoblanadi. Shu sababli so'nggi yillarda ijodiy faoliyatning umumiy yo'llarini rivojlantirish masalasi ayniqsa keskinlashdi. YUNESKOning ta'rifiga ko'ra (1986) pedagogik texnologiya ta'limning yanada samarali shakliga erishish uchun texnik va inson resurslarini va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklarni hisobga olgan holda ta'lim va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli sifatida tushunilishi lozim. V. M. Monaxov, professional ta'limda innovatsion texnologiyalarni

o‘rganishda, texnologiyaning o‘n ikkita ta‘rifi keltirib o’tgan. Ular jumlasida YUNESKO ta‘rifi ham bor [6]. Pedagogik texnologiya - ta‘limning yanada samarali shakliga erishish uchun inson va texnika resurslarini va ular orasidagi o‘zaro aloqadorliklarni hisobga olish orqali ta‘lim va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholashning tizimli usulidir. Tadqiqotchi ham o‘z talqinini beradi: «Texnologiya pedagogika fani va maktab amaliyoti taraqqiyotida merosiylikning (izchillik, ketma-ketlikning) uzlusiz saqlanib qolishi sharti bilan pedagogika va metodikaning instrumental va metodik vositalarini tubdan yangilashdir» deyiladi [7.8].

Zamonaviy ta‘lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Masofaviy ta‘lim, raqamli resurslardan foydalanish va interaktiv metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘zbekistonda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilmoqda. Biroq, tizimni yanada rivojlantirish uchun kadrlar malakasini oshirish, ta‘lim resurslarini boyitish va texnologik infratuzilmani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ta‘lim jarayonining yanada samarali bo‘lishi uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда барпо етамиз. – Т.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz
3. Abduqodirov A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Т.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
4. Abduquddusov O. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – Т.:Fan, 2005. – 157 b.
5. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Т., 2001. – 69 b.
6. Jumayeva.M.A.Bo`lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ped.fan.dok.(PhD) diss.- Buxoro. 2022.yil.
7. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. —Kasbiy ta‘lim pedagogikasi— Metodikqo‘llanma.-T.2005 y
8. . N. Bayturayeva. Developing the creative competence of future primary school teacher as a social problem. International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA <http://euroasiaconference.com> January 20th 2021